

## QO`CHQOR NORQOBIL ASARLARIDA REALISTIKA

Guzal Amirkulovna Ximmatova

Filologiya fanlari bo`yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent.

Termiz davlat universiteti

Termiz, O`zbekiston

[guzalximmatova@mail.ru](mailto:guzalximmatova@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10938715>

**Annotatsiya.** Maqolada Q.Norqobilning urush aks etgan qissa, hikoya, kundaliklarida xotira jarohatlari haqida, ana shu xotira og`riqlarini “Daryo ortidagi yig`i”, “Kulib turib, azizam”, “O`n sakkizga kirmagan men bor” qissalarida aks ettirilishi borasida so`z boradi.

**Tayanch so`zlar:** Harbiy, yozuvchi, fojeliklar, qahramon, ijodkor, urush, aqliy bilim, dalil, nasr, falsafa, faryod, iztirob, o`siprin, narsa- xodisa.

## KOCHKOR NORQABIL'S WORKS ARE REALISTIC

**Abstract.** The article talks about the wounds of memory in Q. Norqabil's short stories, stories, and diaries that reflect the war, and about how these memory pains are reflected in the stories "Crying Beyond the River", "Laughing, My Dear", "There's Me Who Didn't Enter Eighteen".

**Key words:** Military, writer, tragedies, hero, creator, war, intellectual knowledge, proof, prose, philosophy, cry, suffering, teenager, event.

## РАБОТЫ КОЧКОРА НОРКАБИЛА РЕАЛИСТИЧНЫ.

**Аннотация.** В статье рассказы К.Норкабиля, рассказы, воспоминания о войне, о ранах воспоминаний в его дневниках, боли этих воспоминаний отражены в рассказах «Плач за рекой», «Смеюсь, родной» «Есть мужчина, которому не исполнилось восемнадцати».

**Ключевые слова:** Военный, писатель, трагедии, герой, творец, война, интеллектуальное познание, доказательство, проза, философия, крик, страдание, подросток, событие.

Ijodkorning shakllanishida u yashagan davr va muhit muhim rol o`ynaydi. O`rta maktabni bitirib, Afg`onistonga harbiy xizmatga, aniqroqi, janggohga yuborilgan bo`lajak adibning ijodida urush asosiy mavzuga aylandi. Uning yozuvchilik qismatiga shu bitildi. O`z ko`zi bilan ko`rgan urush dahshatlari, fojeliklar, yaqin safdoshlari, do`stlaridan ayrilish adibni iztirobga soladi. Ruhiy iztiroblar unga tinchlik bermaydi. Nazarimizda, Q.Norqobil boshqa mavzuda yoza olmasdi.

Chunki urush fojialari, minglab o`g`lonlarning faryodlari, guno?siz odamlarning bevaqt o`limi. Bularning barchasi yozuvchini qalam olishga undagan bo`lishi, shak-shubhasiz. Afg`on zaminida bo`lgan urush aslida mavjud tuzumning bos?inchilik yurishi, unda ishtirok etgan insonlar esa qahramonlar emas, balki bosqinchi bo`lib, gunohnsiz odamlarning qotiliga aylangan siyosat qurbanlari ekanligini adib o`z asarlarida aks ettiradi.

Odatda ijodkorning tarjimai holi uning asarlari qa'riga singib ketadi. Q.Norqobilning aksariyat asarlarida uning o`zi qahramon sifatida ko`rinadi. Adib urush haqida yozar ekan, unga yolg`on aralashtirmaydi. Uni boricha tasvirlaydi.

Q.Norqobil o`zining suhbatlar va intervacularida Afg`on urushi haqida quyidagilarni xotirlaydi:

“Afg`onistonga borishimiz haqida bilmaganman...ko`pchilik bilmagan, avval Turkmanistonga olib borishdi, bir oylar o`tganidan keyin zobitlar aytishni boshladi Afg`oniston haqida... qochib bo`lmasa, bormayman deb aytu olmasang. Ming qahramonlik ruhi bilan tarbiyalamasin, baribir o`ylaysan, qaytib kelarmikanman deb... Menimcha, hamma bolalarning xayolida shu bor edi. Xullas, bizni avvaliga yuk o`chog`ida Kobulga olib borishdi. Tushganidandan boshqacha bir holat edi... U erdag'i askar bolalarning yuzlari sarg`ayib ketganday edi. Nursiz yuzlar edi. O`zbek, turkman, qozoq, qirg`iz va tojiklar ko`p edi safdoshlarim orasida... Bilasizmi, 12 may, 1987 yilda...biz qurshovda qoldik. Bu mening ikkinchi tug`ilgan kunim edi. Atrofda o`liklar...

Nima bo`lganini bilmaganman ochiqi. Bir mashinada uch kishi tirik qoldik. Qurshov yomon narsa. Shunda o`limni ko`rdim. Bilasizmi, dunyoda tinchlikdan azizroq ne'mat yo`q... mayda-chuyda dardlar, tashvishlar... Noliyotgan odamni ko`rsam rahmim keladi...{2}

Yuqoridagi fikrlardan ham ko`rinib turibdiki, bu endigina etuklik ostonasiga qadam tashlayotgan, hali dunyoqarashi ham, xarakteri ham shakllanib ulgurmagan o`sirinning iztiroblari. U hali voqelik- daryosining girdoblari uni qayoqlarga oqizib ketishi mumkinligini anglab etmagan.

Ma'lumki, Q.Norqobilijodini she'rlar yozish bilan boshlagan. Afg`on urushiga oid daftari nashr etilmasdan oldin yot umidli shoir sifatida e'tirof etilgan edi. Umuman, she'riyat va nasr falsafadagi bilish nazariyasining hissiy va aqliy bilish bosqichlariga o`xshab ketadi. Chunki hissiyot bilan sezgi, hissiyot, tasavvur shakllari muhim o`rin tutsa, aqliy bilishda dalillarga asoslanib, narsa va hodisalar o`rtasidagi aloqadorlikni anglanib, umumlashtirish va ob'ektiv olamni rang- barangligi bilan ko`rishga erishiladi.

Q.Norqobilnasrida bilish nazariyasining har ikkala bosqichi ishtirot etadi. Buni taniqli adib Shukur Xolmirzayev ham o`z fikrlarida e'tirof etgan edi: “Qo`chqor Norqobil shoir, shuning uchun uning nasri kamtarona. Ushbu jumlaga bir nazar tashlaylik: “Shoir sigaret tutatdi. Nam havoda sigaret tutuni buralib havoga o`raladi. Bu holat shoir uchun maroqli edi. Yomg`ir. g`ira- shiralik. Salqin havo... U keyingi bekatgacha piyoda yurgisi keldi.” Bu yerda gap asar qahramonlarining shoirligi haqida emas, umuman tasvir haqida- aniqrog`i borliqni qabul qilish soniyasi haqida ketayapti...”. {1- 308}

Hissiy bilimdan aqliy bilimga o`tish sifat o`zgarishi hisoblanadi. Aqliy bilishning shakllari tushuncha, hukm va xulosadir. Q.Norqobilnasrida shu ikki tushuncha bir- biriga shunday uy?unlashib ketdiki, yagona bir butunlikni hosil qiladi - hissiyotlar, sezgilar ifodasi hukmga, xulosaga yo`l ochadi. “Daryo ortidagi yig`i” asarida shunday epizod bor:

“Uchinchi kuni Bagramga kirayotib qanday vayronagarchilik qilgan bo`lsak, undan ham besh battar o`yinlar ko`rsatib qaytdik. Ekinzorlarni tag`in yakson etdik, qishloqlarni o`qqa tutdik, buzilgan uy va qo`porilgan devorlargina omon qoldi.

Aholisi qo`rqidan tashlab ketgan qishloqlar xarobaga aylangan edi. Biz insoniy histuyg`ularni unutgan, har qanday yovuzlikdan tap- tortmaydigan, lekin dunyo yovuzlikdan iboratligini anglab ulgura olmayotgan maxlu?larga aylangan edik... Ey, xudo! Bundan ortiq sharmandalik bormikin!. Dunyoga shunchalik gunoh ish qilish uchun kelganmidim?”. {3-80}

Ko`rinib turibdiki, ekinzorlarni payhon qilish manzarasi hissiyot va sezgilarni junbushga keltirib, kuchli umumlashma – grajdaniq – e'tiqodi mustahkam shaxsning qalb nidosi bo`lib yangromoqda.

Q.Norqobilurush aks etgan qissa, hikoya, kundaliklarida xotira jarohatlari haqida bot- bot gapirib o`tadi. Ana shu xotira og`riqlari ham yozuvchining poetik uslubiga o`z ta'sirini o`tkazgan.

Bu asarlar syujetidagi voqealar ko`pincha xotira, tush, alaqisirash, galyutsinatsiya shaklida reallashadi. Shu tariqa yozuvchi reallikdan noreallikka, noreallikdan reallikka o`taveradi. “Daryo ortidagi yig`i”, “Kulib turib, azizam”, “O`n sakkizga kirmagan men bor” hissalarining barchasida ana shunday individual uslub belgilarini ko`ramiz.

Faylasuflarning fikricha, bilim inson tajribasi tasdiqidan o`tgan voqelik in'ikosi bo`lsa, ong voqelikning so`zsiz isbotlangan, haqiqat in'ikosi bo`lolmaydi. Chunki ong tarkibida taxmin, tusmol, adashish, aldanish hollari ham uchraydi. Q.Norqobilnasri qahramonida, to`g`riroq aytadigan bo`lsak, muallif shaxsiyatining shakllanish jarayonida uning ongida kechgan taxmin, adashish, aldanish faktorlari o`z izini qoldirgan. Bu esa, yozuvchiga reallikdan hech sezdirmay noreallikka yoki aksincha yo`l tutishga qo`l kelgan. Bularidan tashqari adib nasrida g`ayrishuuriy holatlar ifodasi ham tez- tez ko`zga tashlanib qoladi. Masalan, “Bosinqirish” hikoyasidagi quyidagi epizodda ko`rib o`tamiz.

“Qo`shin Ali Xilidan qaytayotib bir qishloqni vayronaga aylantirib tashladi. Uylar, devorlar o`pirilib qoldi. Tanklar hovli ekinlarini g`ijilab o`tdi. Mol- xollarni otib ketaverdik.

Bog`lardagi mevalarni o`zimizniki singari o`ynab terdik. Biz kirishimizdan avval artilleriya va samolyotlar, tik ucharlar o`qqa tutgan qishloqda odam zoti qolmagandi. Vzvod derazalari chil- chil sinib to`kilgan kulba oldidan o`tayotganda Bachkarev menga yarmi o`pirilgan devor tomonni qo`li bilan ko`rsatib, baqrayib turaverdi. Uning gapirishga majoli yo`q edi. Men Bachkaryev imo qilayotgan tomonga qaradim. Devor tagida uch yasharlar chamasidagi qip-yalong`och bolacha, ichak- chavaqi chiqib o`lib yotardi. Men yuzimni berkitib oldim. Oyoqlarim qaltirab, boshim aylanib ketdi. Dam- badam o`xchirdim. Jag`im taqqillab, badanimdan sovuq ter oqa boshladi. Men butun boshli vzvod, butun boshli armiyamizni er o`z komiga tortib ketishini juda- juda xo?lardim. Menga tiriklikning qiziqi qolmagandi.

Ko`zlarimda qotib qolgan bu manzarani hech narsa yo`qota olmaydi. Men uni o`zim bilan olib ketaman. qulagan devor va...

Oyoqlarimga allaqanday yumshoq narsa tegib turibdi. Mana endi tizzalarimga dovur emaklab keldi. Badanim muzlab borayapti. qarashga qo`rqaman. U qornimga o`rmalab keladi, yonboshimga ag`anab, men bilan yotaveradi. Etim durgi, seskana- seskana qarayman. Shunga... irib- sirib yotgan, timsoh terisiga o`xhash badanlaridan suyuqlik sizayotgan, qop- qorayib ketgan chaqaloq ikkala qo`li bilan yuzimga chang soladi. Bo`g`ilib ketaman. Ovozim chiqmaydi...

... Nima bo`ldi Sizga?

Suv opke, xotin, suv, - bosinqiradim.

Xotinim uyqusirab oshxonaga yuguradi. Yonimda yotgan o`g`ilcham chinqirib yig`laydi. Men hanuz o`zimga kelolmay bolamni yupataman.

Uxa qil, o`g`lim. qani,uxa qil, endi...

Mana, suv ichib oling. E xudo yuragimni chiqarib yubordingiz... Bugunam qo`rqdingizmi?

Men jimman. Tonggacha o`g`lim va xotinimning boshida o`tirib chiqaman. Ko`zim ilinishidan qo`rqaman.”. {4-187}

Yuqori ong qatlami bilan hayrishiuriylik oralig`i yopiq bo`lsa-da, ayrim hollarda masalan, tush ko`rganda, xatto ish qilganda namoyon bo`ladigan ruhiy holat. Ong mazmunli faoliyat

ko`rsatmagan paytlarda hayrishiuriylik kuchayadi. Natijada assotsiativ ravishda fikr oqimiga ta'sir ko`rsatadi, fikrga qamrohlik qilishga harakat qiladi. Yozuvchining bir qator asarlarini shunday psixologik taxlil qilish ham uning nasriga xos o`zak tushuncha tamoyil va kontseptsiyani to`liqroq yoritishda qo'l keladi.

#### **REFERENCES**

1. Norqobil Q. Asorat G` Quyoshni kim uyg`otadi?: qissalar, hikoyalar. – T.: “Sharq” NMAK, 2007. – 308
2. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/muhim-badiiy-vosita/#>
3. Norqobil Qo`chqor. Kulib tur, azizim. quyoshni kim uyg`otadi?: qissalar, hikoyalar – T.: “Sharq” MAK, 2007. – B.81.
4. Norqobil Qo`chqor. O'n sakkizga kirmagan men bor. Quyoshni kim uyg`otadi?: qissalar, hikoyalar –T.: “Шарқ” HMAK, 2007. – Б.187.